

**“Kapitalbank” ATBda yuridik shaxslar va yakka
tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmati
ko‘rsatish to‘g‘risida kelishuvning
5-ILOVASI**

**E-POS terminali orqali UZCARD EMV plastik kartasi egalariga xizmat ko‘rsatish
TARTIBI**

I. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA‘RIFLAR:

1.1. Ushbu Tartibda qo‘yidagi atama va ta‘riflardan foydalaniladi:

Karta – Karta saqlovchisiga Karta hisobvarag‘i bo‘yicha bir necha marotaba transaksiya o‘tkazish imkoniyatini ta‘minlaydigan, Bank yoki O‘zbekiston Respublikasi tijorat banki tomonidan chiqarilgan, “UZCARD EMV” tizimining so‘mdagi mikroprotessorli plastik kartasi. Kartaning holati haqidagi joriy ma‘lumot YAUPMda aks etadi.

UZCARD EMV – bazaviy elementi “EMV” texnologik platformasidagi Kartalar hisoblangan ichki naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi. Taransaksiyalarning haqiqiy vaqt rejimida amalga oshirilishi UZCARD EMV tizimining asosiy ajralib turadigan xususiyati hisoblanadi;

Karta hisobvarag‘i - undagi pul mablag‘laridan Karta vositasida ham Kartasiz ham foydalanish mumkin bo‘lgan kartaning bank hisobvarag‘i;

Karta Saqlovchisi - kartaning egasi yoki kartaning egasi vakolat bergan, emitenet bilan tuzilgan shartnomaga asosan Kartadan foydalanuvchi va Kartani sotib olingan tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar va ishlar uchun to‘lov vositasi sifatida taqdim qiluvchi shaxs;

YAUPM –bank kartalarining dastlabki emissiyasini, transaksiyalarning avtorizatsiyasi, qayta ishlanishi va kliringini, “UZCARD” BTT doirasida banklar o‘rtasida o‘zaro axborot aloqasini va ularga bank kartalari bo‘yicha amalga oshirilgan banklararo transaksiyalarni tasdiqlash uchun ushbu transaksiyalar haqida ma‘lumotning yuborilishini ta‘minlovchi yagona umumrespublika protsessing markazi;

“UZCARD” BTT (Banklararo to‘lov tizimi) – huquqiy normalarning, normativ hujjatlarning, dasturiy-texnik qarorlarning va naqd pulsiz hisob-kitoblarni elektron shaklda amalga oshirishga mo‘ljallangan hamda karta emissiya qiluvchi, tovar/ishlar/xizmatlarni sotuvchilariga xizmat ko‘rsatuvchi, hisob-kitob qiluvchi banklarni va YAUPMni birlashtiruvchi tegishli tashkiliy-texnik infratuzilmaning yig‘indisiga asoslangan hududiy taqsimlangan to‘lov tizimi;

Tartib - E-POS terminali orqali UZCARD EMV plastik kartasi egalariga xizmat ko‘rsatishning ushbu tartibi. Mazkur Tartib Bankning saytida joylashtirilgan;

Emitent - bank kartalari emissiyasini amalga oshiruvchi, o‘zi emissiya qilgan bank kartalariga mulk huquqiga ega bo‘lgan va ularning saqlovchilari va ekvayer banklar oldida ular tomonidan bank kartalaridan foydalanilgan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish huquqlari bo‘yicha o‘z nomidan majburiyatlarni zimmasiga olgan bank;

Ekvayer – mijoz bilan transaksiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni o‘tkazuvchi bank;

Transaksiya/To‘lov – tovarlar/ishlar/xizmatlar haqini to‘lash uchun karta orqali amalga oshiriladigan to‘lov. Transaksiya karta Saqlovchisi tomonidan dinamik parol, bank kartasi raqami va internet to‘lovlarning boshqa xavfsizlik atributlari yordamida tasdiqlanadi;

Maxsus dasturiy mahsulot (Tizim) – internet-ekvayring bo‘yicha xizmat ko‘rsatishga, xususan, Mijozning tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun Karta orqali to‘lovlari bo‘yicha ma‘lumotlarni qabul qilish va qayta ishlashni tashkil qilishga mo‘ljallangan, tizim Mualliflik huquqi egasi tomonidan ishlab chiqarilgan intellektual mulk mahsuloti;

Tizim Mualliflik huquqi egasi – Bank va Mijozga Tizimga kirishga ruxsat berish huquqiga ega yuridik shaxs;

To‘lovlarni qabul qilish shaxobchasi (TQSH) –Tizimga integratsiya qilingan To‘lov instrumentlaridan foydalanib To‘lovlarni qabul qiluvchi masofadagi ish joylari;

E-POS terminal – internet-do‘konda yoki Mijozning TQSHsida tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun karta orqali to‘lovlarni qabul qilishga va amalga oshirilgan transaksiyalar bo‘yicha real vaqt rejimida YAUPMdan elektron cheklarni shakllantirishga mo‘ljallangan virtual terminal;

To'lov instrumenti – jismoniy shaxs - bank mijozlariga o'zlarining karta hisobvaraqlarini boshqarishga, Mijozga mobil ilova, web-ilova, USSD so'rov yoki QR-kod yordamida tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishga imkon beradigan, Tizimga ulangan dasturiy-apparat majmua;

USSD (Unstructured Supplementary Services Data) so'rov – real vaqt rejimida mobil telefon yordamida karta Saqlovchisi va To'lov instrumenti/Tizim o'rtasida ma'lumot almashish. USSD so'rov yordamida karta Saqlovchisi kartadan Mijoz foydasiga transaksiya amalga oshirishi mumkin;

QR-kod – oq-qora elementlardan yoki bir nechta turli darajadagi yorug'lik elementlaridan iborat, odatda to'g'ri burchak yoki kvadrat guruhiga joylashtirilgan kvadrat shaklidagi matritsali kod (ikki o'lchovli shtrixkod). Mazkur kodda Mijozning va/yoki Mijozning E-POS terminali orqali transaksiya o'tkazish uchun veb-xavolaning ma'lumotlari kodlangan bo'ladi;

Transaksiya fayllari - E-POS terminalning amalga oshirilgan transaksionalari bo'yicha YAUPMdan olingan ma'lumotlari mavjud fayllar;

Elektron chek – kartadan foydalangan holda onlayn transaksiyaning amalga oshganligini transaksiya o'tkazilganidan keyin tasdiqlovchi, web-ilovada, mobil ilovada aks etuvchi yoki SMS xabarnoma ko'rinishidagi kvitansiya. O'tkazilgan to'lov, operatsiya summasi, operatsiya amalga oshgan sana, shuningdek, kartani, ushbu elektron chekni shakllantirgan E-POS terminalni aniq identifikatsiya qilishga imkon beruvchi boshqa ma'lumotlar haqida umumiy axborotni o'z ichiga oladi;

Reversal – kommunikatsion xatoliklar (aloqadagi uzilishlar) sodir bo'lganda yoki Mijoz tomonidan tovarlar (xizmatlar)ni sotib olish rad qilinganida Kartochka bo'yicha E-POS terminaldagi transaksiyani bekor qilish;

Internet do'kon – Mijozga u sotgan tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun karta Saqlovchilaridan To'lov instrumenti yoki web-ilova yordamida to'lovlarni qabul qilish imkoniyatini beruvchi dasturiy interfeys

Merchant ID – Mijozni YAUPMda ro'yxatdan o'tkazishda olingan, Mijozning UZCARD EMV tizimidagi identifikatsion raqami;

Terminal ID – Mijozni YAUPMda ro'yxatdan o'tkazishda olingan, E-POS terminalning UZCARD EMV tizimidagi identifikatsion raqami;

Avtorizatsiya – UZCARD EMV tizimi texnologiyasiga asosan telefon, elektron va boshqa aloqa vositasida kartadan foydalanib operatsiya amalga oshirishga karta emitentining ruxsatini olish jarayoni;

1.2. Ushbu Tartibda foydalaniladigan atama va ta'riflar Kelishuvdagi mazmun bilan bir xil mazmunga ega.

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Tartib Arizaga asosan Taraflarning telekommunikatsiya vositalarini intergatsiyalash bo'yicha barcha texnik ishlar bajarilganidan so'ng Taraflar uchun majburiy bo'ladi (kuchga kiradi), arizaga asosan Mijoz topshiriq beradi, Bank esa karta Saqlovchilariga xizmat ko'rsatishni ta'minlash majburiyatini oladi, aynan:

-kartadan foydalanib amalga oshirilgan transaksionalar bo'yicha ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlashni tashkil etish maqsadida Mijozni Tizimga va/yoki To'lov instrumentiga ulaydi;

- Mijozga birlashtirilgan E-POS terminalni Tizimga va/yoki To'lov instrumentiga ulash maqsadida uni ro'yxatga oladi va xizmat ko'rsatadi;

- Mijozning hisobvarag'iga pul mablag'larining o'z vaqtida va to'liq hajmda kirim qilinishi ta'minlaydi.

2.2. Mazkur Tartib, Kelishuv, Tariflar, shuningdek Ariza, birgalikda Mijoz va Bank o'rtasida Mijozga UZCARD EMV plastik kartasi egalarining E-POS terminali orqali xizmat ko'rsatish shartnomasi (keyingi o'rinlarda – "Shartnoma") orqali tuzilgan hisoblanadi.

2.3. Shartnoma bo'yicha barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi so'mda amalga oshiriladi.

2.4. Mijozning Internet do'koni mavjud bo'lsa, Internet do'kon Tizimning va "UZCARD" BTTning axborot xavfsizligi talablariga javob bersagina, Bank Mijozga karta Saqlovchilarga xizmat ko'rsatish imkoniyatini taqdim qiladi.

2.5. Mijozni Tizimga va/yoki To'lov instrumentiga texnik ulash Tizim Mualliflik huquqi egasi mutaxassislarining texnik ko'magi bilan amalga oshiriladi.

2.6. O'tkazilgan transaksionalar to'g'risidagi axborotlarni yuborish ruxsat etilgan formatlar asosida elektron shaklda (real vaqt rejimida) va "UZCARD" BTT hamda Tizim va/yoki To'lov instrumenti talablariga asosan ruxsat berilgan tarmoqlardan hamda aloqa vositalaridan foydalanib amalga oshiriladi.

III. TARAFLARNING MAJBURIYATI

3.1. Mijozning majburiyatlari:

3.1.1. o'zining talab qilib olinguncha bank hisobvarag'ida (asosiy/ikkilamchi), agar Mijozda asosiy/ikkilamchi hisobvaraq bo'lmasa, 22896 _____ hisobvarag'ida Shartnoma bo'yicha Bankning

vositachilik haqini, shuningdek, jarima/neustoyka va Bankka yetkazilgan zararni to'lash uchun yetarli bo'lgan pul mablag'larini saqlash;

3.1.2. Shartnoma bo'yicha Bankning vositachilik haqini, shuningdek, jarima/neustoyka va Bankka yetkazilgan zararni to'lash uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmasa, 2 (ikki) bank kuni mobaynida talab qilib olinguncha hisobvarag'ini (asosiy/ikkilamchi), agar Mijozgi 5.2-bandga asosan Bank xizmat ko'rsatilayotgan bo'lsa, 22896 _____ hisobvarag'ini to'ldirish;

3.1.3. E-POS terminaldan maqsadi bo'yicha foydalanish;

3.1.4. Ariza berilgan paytdan 1 (bir) ish kuni mobaynida Mijozning hisob tizimi shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlarini (login va parol), shuningdek, Tizim va/yoki To'lov instrumenti bilan integratsiyalash maqsadida barcha zarur texnik ma'lumotlarni Bankka va/yoki tizimning Mualliflik huquqi egasiga taqdim qilish. Mijoz ushbu orqali Bank tomonidan Shartnoma maqsadlari uchun tizimning Mualliflik huquqi egasiga shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlarining taqdim qilinishiga o'z roziligini tasdiqlaydi;

3.1.5. Shartnoma bo'yicha Tizim va/yoki To'lov Instrumenti bilan axborot almashishda ishlatiladigan qurilmasi va Internet do'koni/TQSHsining axborot xavfsizligini va o'zaro texnik aloqasini ta'minlash;

3.1.6. Savdo axboroti Parametrlarni qabul qilish, tekshirish va jo'natishning texnik talablariga, shuningdek, Tizim bilan ishlash qoidalariga qat'iy amal qilgan holda harakat qilish;

3.1.7. Mijozni Tizim va/yoki To'lov Instrumentiga ulash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni Bankka va/yoki tizimning Mualliflik huquqi egasiga taqdim qilish;

3.1.8. Internet do'kon yoki TQSH orqali realizatsiya qilinadigan tovarlar/ishlar/xizmatlar ro'yxatini Bankka va/yoki tizimning Mualliflik huquqi egasiga taqdim qilish;

3.1.9. faoliyat turi o'zgarganda bu haqida darhol Bankka ma'lum qilish;

3.1.10. Bank bilan o'zaro aloqa qilish, hujjatlarni yuritish uchun mas'ul bo'lgan xodimni tayinlash (keyingi o'rinlarda ma'sul xodim deb nomlanadi): _____, tel: _____, e-mail: _____. Bank bilan o'zaro aloqa qilish uchun mas'ul bo'lgan xodim o'zgariganida, Mijoz yangi mas'ul xodimni va aloqa ma'lumotlarini ko'rsatgan holda bu haqida Bankni 3 kun ichida yozma ravishda xabardor qilishi shart;

3.1.11. E-POS terminal orqali operatsiyalar o'tkazishda karta Saqlovchilari va boshqa banklar bilan yuzaga kelgan ziddiyatli vaziyatlarini mustaqil hal qilish;

3.1.12. Internet sayti, manzili o'zgarganda va/yoki bank rekvizitlari o'zgarganda, Mijoz bu haqida bunday o'zgarishlar amalga oshganidan keyin 2 kalendar kun mobaynida Bankni yozma ravishda xabardor qiladi.

3.1.12. Ushbu Tartibning 1-Ilovasiga asosan mijoz Anketasini ishonchli ma'lumotlar bilan to'ldirish.

3.2. Bankning majburiyatlari:

3.2.1. Mijoz Ariza bergan sanadan 10 (o'n) bank kuni mobaynida Mijozni Bankning avtomatlashtirilgan tizimida ro'yxatga olish, YAUPM dan Merchant ID va Terminal Idni olish uchun Mijozni UZCARD EMV tizimida ro'yxatdan o'tkazish, topshirish qabul qilish Dalolatnomasiga asosan Merchant ID va Terminal Idni Mijozga topshirish. Topshirish qabul qilish Dalolatnomasining shakli ushbu Tartibning 2-Ilovasida berilgan;

3.2.2. Bank tomonidan YAUPMdan transaksiyalar Faylini olgandan so'ng keyingi bank kundan kechiktirmasdan barcha qayta ishlangan transaksiyalar summasi miqdoridagi pul mablag'larini mijozning Anketasida ko'rsatilgan Mijozning talab qilib olinguncha asosiy/ikkilamchi hisobvarag'iga ko'chirib berish;

3.2.3. Xizmatlar ko'rsatishning normal rejimi buzilishiga olib keluvchi, Bank tomonida rejali texnologik ishlarning (avariya holatlarining) o'tkazilishi haqida faksimil aloqasi, elektron pochta, Bankning rasmiy saytida xabar berish vositasida yoki Bankning tanlovi bo'yicha boshqa har qanday usulda Mijozga xabar berish;

3.2.4. Tizimning ishlashi va hujjat aylanishiga mas'ul shaxsni tayinlash (keyingi o'rinlarda Bankning ma'sul xodimi deb nomlanadi);

3.2.5. Mijozning yozma arizasi bo'yicha qayta ishlangan Transaksiyalar bo'yicha ko'chirma taqdim qilish;

3.3. Taraflar maxfiylikka rioya qilishlari va ikkinchi tarafning yozma roziligisiz ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari shart, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.4. Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

IV. TARAFLARNING HUQUQI

4.1. Mijozning huquqlari:

4.1.1. Tizimning ishlashi masalalari bo'yicha maslahat so'rab Bankka yoki to'g'ridan-to'g'ri tizimning Mualliflik huquqi egasiga murojaat qilish. Shu maqsadda tizimning Mualliflik huquqi egasiga murojaat qilish uchun quyidagi kanallar ochiq bo'ladi: (1) "ishonch telefoni" _____;

4.1.2. Amalga oshirilgan Transaksiyalar haqida Bankdan yozma shaklda ko'chirma so'rash yoki uni masofaviy bank xizmati tizimi orqali shakllantirish;

4.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega emas:

4.2.1. Reversal operatsiyasi o'tkazilganda yoki karta Saqlovchisi tovarlar/ishlar/xizmatlarni rad qilganida naqd pul mablag'lari berish. Bunda holatda Mijoz karta Saqlovchisining arizasiga asosan mablag'larni karta Saqlovchisining karta hisobvarag'iga o'tkazib berishi kerak;

4.2.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan nazorat funksiyalariga ega shaxslardan tashqari boshqa Uchinchi shaxslarga Transaksiyalarni bajarish va ularni amalga oshirish usullari haqidagi ma'lumotlarni berish;

4.2.3. Mualliflik huquqi ega va Bank bilan kelishmasdan Transaksiyalar o'tkazish jarayonini boshqarishni tutib olishga imkon beruvchi E-POS terminalni qo'shimcha chaqiruv yo'riqnomalarini joriy etish.

4.3. Bank huquqlari:

4.3.1. Mijozga Tizimda ishlash masalalari bo'yicha maslahatlar berish;

4.3.2. Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish, shu jumladan, kartadan foydalanib operatsiyalar o'tkazilishini ta'minlash, Mijoz Internet do'konini Tizimga va/yoki To'lov instrumentiga ulash uchun Uchinchi shaxslarni jalb qilish;

4.3.3. Mijoz tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarni tekshirish, shuningdek, nizoli operatsiyalar va Kartadan noqonuniy foydalanganlik holatlari bo'yicha tekshirish o'tkazish;

4.3.4. ma'lumotlarni yuborish talablariga hamda Tizim va/yoki To'lov instrumenti va "UZCARD" BTT E-POS terminalini chaqiruv yo'riqnomasiga bir tomonlama o'zgartirish/qo'shimcha kiritish;

4.3.5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan Mijozning farmoyishsiz (akseptsiz tartibda) Mijozning talab qilib olinguncha (asosiy/ikkilamchi) hisobvarag'idan Bank Tariflariga asosan pul mablag'lari yechib olish, bunga Mijoz qaytarib olinmaydigan va nizosiz huquq beradi;

4.3.6. Quyidagi hollarda Biror bir ogohlantirishsiz Shartnomaning amal qilishini vaqtincha to'xtatib turish:

- E-POS terminal orqali shubhali (gumonli) operatsiyalar amalga oshirilganligi aniqlanganda, amalga oshirilgan operatsiyaning qonuniyligi haqida Mijoz yozma tushuntirish berguniga qadar;

- pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar muzlatilganda va/yoki to'xtatilganda;

- hisobvaraqda mavjud pul mablag'lariga ta'qiq qo'yilganda yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ko'rsatilgan hollarda hisobvaraq bo'yicha operatsiyalar to'xtatib turilganda;

- Tizimga va/yoki To'lov instrumentiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan avariya va reglament ishlari bajarilganda;

4.3.8. Quyidagilar aniqlangan kunda Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarishdan bir tomonlama voz kechish:

- E-POS terminaldan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadlarida foydalanilganligi haqida asosli shubhalar bo'lganda;

- takroran shubhali (gumonli) operatsiyalar o'tkazilganda yoki E-POS terminaldan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadlarida foydalanilganligi haqida asosli shubhalar bo'lganda.

4.3.9. Mijoz ushbu Tartibning 3.1 va 4.2-bandlarida nazarda tutilgan shartlarni buzganda, shuningdek, Mijoz tomonidan bir oy davomida karta Saqlovchilariga xizmat ko'rsatilmaganida Shartnomani bir tomonlama bekor qilish (uni bajarishdan voz kechish);

4.3.10. Quyidagi hollarda Mijozning Transaksiyalar bo'yicha pul mablag'larini ko'chirib berishni bir tomonlama to'xtatib turish:

- E-POS terminaldan, "UZCARD"BTTdan va Tizim va/yoki To'lov instrumentidan foydalanish qoidalarini buzish oqibatida Transaksiyalar haqida ma'lumotlar noto'g'ri shakllantirilgan bo'lsa;

- Karta Saqlovchisi Transaksiyalarga nisbatan da'vo kiritgan bo'lib, ushbu da'vo O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyatining vakolatli organlari tomonidan qanoatlantirilgan bo'lsa;

- Mijozni qayta tashkil etish va tugatish jarayoni mavjud bo'lsa. Bunday holatda Transaksiyalar bo'yicha pul mablag'larini ko'chirib berish tugatish komissiyasining yoki boshqa vakolatli organning tegishli qarorigacha to'xtatib turiladi;

- Mijoz tomonidan ushbu Tartibning 3.1 va 4.2-bandlarigi asosan unga yuklatilgan majburiyatlar bajarilmayotgan bo'lsa;

4.3.11. Mijozning karta Saqlovchilarga xizmat ko'rsatayotganligi bo'yicha amaldagi faoliyati va faolligi ustidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda shubhali (gumonli) operatsiyalarni oldini olish va aniqlash uchun monitoring olib borish.

4.3.12. Mijozlar tomonidan Ko'rsatilgan xizmatlarga to'lov qilish muddatlari buzilganligi uchun ulardan har bir kechiktirilgan kun uchun qarzdorlik summasining 0,4% miqdorida, biroq, muddati o'tgan to'lov summasining 20 %dan ko'p bo'lmagan miqdorda neustoyka undirish;

4.4. Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

V. XIZMATLAR UCHUN TO'LOV MIQDORI VA ULARNI TO'LASH TARTIBI

5.1. Mijozdan Kartalar orqali to'lovlarni qabul qilish bo'yicha E-POS terminalga xizmat ko'rsatilganligi uchun vositachilik haqi Bank Tariflariga muvofiq memorial order asosida Bankda ochilgan milliy valyutadagi talab qilib olinguncha asosiy/ikkilamchi hisobvaraقدan, Transaksiyalar bo'yicha pul mablag'lari kirim qilinganda, Bank tomonidan akseptsiz tartibda yechib olinadi, bunga Mijoz qaytarib olinmaydigan va nizosiz huquq beradi.

5.2. Mijoz Bankda milliy valyutada ochilgan talab qilib olinguncha asosiy/ikkilamchi hisobvarag'iga ega bo'lmasa, Mijoz Kartalar orqali to'lovlarni qabul qilish bo'yicha E-POS terminalga xizmat ko'rsatilganligi uchun vositachilik haqini Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab 1 (bir) bank kuni kuni mobaynida Bankda ochiladigan 22896xxx hisobvarag'iga pul ko'chirish orqali oldindan to'lov qiladi. Oldindan to'lovning miqdori 500 000 (besh yuz ming) so'mni tashkil qiladi. Mijoz ushbu hisobvaraقدa 500 000 (besh yuz ming) so'm miqdoridagi pul mablag'ini saqlash majburiyatini oladi.

5.3. Kartalar orqali to'lovlarni qabul qilish bo'yicha E-POS terminalga xizmat ko'rsatilganligi uchun vositachilik haqi miqdori va hisob-kitob qilish tartibi Bank Tariflari bilan o'rnatiladi.

5.4. Mijozning hisobvarag'ida vositachilik haqini qoplash uchun pul mablag'lari mavjud bo'lmaganida yoki yetarli bo'lmaganida, qarzdorlikning qoplanmagan qismi tegishli tartibda ijro qilinadigan to'lov talabnomasi qo'yish orqali Kartoteka-2 ga joylashtiriladi. Ushbu to'lov talabnomasi biror-bir ko'shimcha tasdiqlarsiz Mijoz tomonidan akseptlangan hisoblanadi.

VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kelishuv va ushbu Tartibga asosan javobgar bo'ladi.

6.2. Mazkur Tartibning predmetiga bog'liq holda Taraflardan biriga moddiy yoki moliyaviy zarar yetkazilganda aybdor tomon ushbu zararni qoplab beradi.

6.2. Mijoz quyidagi uchun to'liq javobgar bo'ladi:

- Shartnomaga asosan Bankka taqdim qilingan ma'lumotlarning, shu jumladan, Internet do'kon va boshqa to'lovlarni qabul qilish Shaxobchalari orqali realizatsiya qilinadigan tovarlar/ishlar/xizmatlar turlarining haqqoniyligi uchun;

- Karta Saqlovchilarning kartalari bo'yicha E-POS terminal vositasida amalga oshiriladigan operatsiyalarning to'g'riligi va qonuniyligi uchun.

6.3. Bank quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

- E-POS terminal orqali Transaksiyalarni o'tkazishda qatnashuvchi uchinchi shaxslarning qurilmalari yoki aloqa kanallari ishidagi uzilishlar uchun;

- Mijozning axborot resurslari, telekommunikatsiya vositalarining ruxsat etilmagan harakatlardan lozim darajada himoyalannaganligi natijasida Mijozga yetazilgan zarar uchun;

- Mijoz tomonidan tovarlar/ishlar/xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun karta Saqlovchilari oldida;

- quyidagi pul mablag'larini undirish bo'yicha:

Ushbu Tartib shartlariga mos kelmaydigan yoki zid bo'lgan Transaksiyalar bo'yicha;

Ushbu Tartibning 4.3.8 bandida ko'rsatilgan sabablar bo'yicha;

- banklararo elektron to'lov tizimidagi ehtimoliy uzilishlarda;

- Bankka bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va fors-major holatlari kelib chiqqanda shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarni bajarish imkoniyati bo'lmaganda.

6.4. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik Uchinchi shaxslarning aybi bilan sodir bo'lsa, Taraflar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar. Bunday holatda Taraflar xizmat ko'rsatishdagi uzilish sabablarini bartaraf qilish uchun, agar bunday munosabatlar mavjud bo'lsa, Uchinchi shaxslar bilan shartnomaviy munosabatlardan foydalangan holda qo'ldan kelgan barcha harakatlarni qiladilar.

VII. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. Shartnoma Mijoz tomonidan Ariza berilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va 1 (bir) yil muddatga amal qiladi. Taraflardan birortasi Shartnomaning amal qilish muddati tugagunga qadar 20 (yigirma) bank kuni oldin Shartnomani bekor qilish haqida istak bildirmagan bo'lsa, Shartnoma har bir keyingi kalendar yil uchun uzaytirilgan hisoblanadi.

7.2. Shartnoma Kelishuv va ushbu Tartibda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek, Taraflardan birining tashabbusiga ko'ra ikkinchi Tarafni shartnomani bekor qilishning taxminiy sanasidan 10 (o'n) bank kuni oldin ogohlantirish sharti bilan, Mijoz barcha majburiyatlarini bajargan va Shartnoma bo'yicha Bank oldida qarzdorligi mavjud bo'lmasa, bir tomonlama bekor qilinishi yoki to'xtatilishi mumkin.

7.3. Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganida Taraflar o'z majburiyatlari bo'yicha, agar ular mavjud bo'lsa, barcha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish majburiyatini oladilar

7.4. Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganida, Bankda Mijozga ushbu Tartibning 5.2 bandidagi shartlar asosida xizmat ko'rsatilayotgan bo'lsa va hisobvaraqda foydalanilmagan oldindan to'lov qolib ketayotgan bo'lsa, Taraflar o'rtasida solishtirma dalolatnoma tuziladi, ushbu solishtirma daloltanomaga asosan Bank pul mablag'lari qoldig'ini Mijozning O'zbekiston Respublikasining xoxlagan tijorat bankida ochilgan hisobvarag'iga ko'chirib beradi.

7.5. Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganida Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to'lovlari Mijozga qaytarilmaydi.

7.6. Shartnoma bilan bog'liq nizolar taraflar tomonidan muzokara yo'li bilan o'zaro hal qilinadi. Nizolarni muzokara qo'li bilan hal qilishning imkoniyati bo'lmagan hollarda, nizolar Kelishuvda belgilangan tartibda hal etiladi.

7.7. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kelishuv bilan tartibga solinadi.

**Mijozlarga UZCARD EMV plastik kartasi egalarining E-POS terminali
orqali xizmat ko'rsatish Tartibiga
1-Ilova**

MIJOZ ANKETASI

Mijoz nomi _____

Yuridik manzili: _____

Mo'ljal: _____

Mijozning Internet sayti
(agar mavjud bo'lsa) _____

Rahbarning F.I.Sh. _____

Rahbarning aloqa telefoni _____

Buxgalterning F.I.Sh. _____

Buxgalterning aloqa telefoni _____

Tizimda va/yoki To'lov
instrumentida ro'yxatga olish
uchun mobil telefon raqami _____

Bank hisobvarag'i
rekvizitlari _____

Faoliyat sohasi (Pullik
xizmat/savdo korxonasi): _____

Rahbar _____
(Imzo)
M.O'.

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarning
haqqoniyligini tasdiqlayman.

“Kapitalbank” ATB
tomonidan _____

Mijoz xodimi bilan instruktaj o'tkazdi

**Mijozlarga UZCARD EMV plastik kartasi egalarining E-POS terminali
orqali xizmat ko'rsatish Tartibiga
2-Ilova**

TOPSHIRISH-QABUL QILIB OLISH DALOLATNOMASI

Toshkent sh

“ _____ ” yil “ ____ ” “ _____ ”

Boshqaruvchi:

Bo'lim boshlig'i/plastik kartalar sho'basini
mudiri:

dan iborat “Kapitalbank” ATB Vakillari

va Mijoz vakili:

Rahbar:

tuzdilar ushbu Dalolatnomani shu haqidakim, quyidagi ma'lumotlar:

№	Merchant IDsi	Terminalning Identifikatori
1	_____	_____

“Kapitalbank” ATB Vakillari tomonidan **TOPSHIRILDI**, Mijoz Vakili tomonidan esa **QABUL QILIB OLINDI**.

Taraflar haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan dalolatnomani imzolaganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirilganlar.

Bank tomonidan topshirildi:

Mijoz tomonidan qabul qilib olindi:

Boshqaruvchi

M.O'.

F.I.Sh.

**Bo'lim boshlig'i/Plastik kartalar sho'basini
mudiri**

Imzo

M.O'.